



UDK: 902. 6(575.151)

Odiljon XAMIDOV,
Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD
Email: odiljonkhamidov@tersu.uz

Termiz davlat universiteti professori, t.f.d. Sh.Shaydullayev taqrizi asosida

THE HISTORY OF BACTRIA IN ELAMITE WRITTEN SOURCES (6th–4th CENTURIES BCE)

Annotation

Bactria is a historical and cultural region in Central Asia, situated in the middle reaches of the Amudarya River between the Hissar Range and the Hindu Kush, encompassing present-day southern Uzbekistan, southern Tajikistan, northern Afghanistan, and southeastern Turkmenistan. In the 6th–4th centuries BC, this region formed part of the Achaemenid Empire, during which local statehood traditions were further developed. The history of the Bactrian satrapy, one of the principal administrative units of the Achaemenid state, is partially documented in a variety of written sources, including Achaemenid inscriptions and texts in Elamite, Babylonian, Aramaic, Phoenician, Egyptian, Lydian, Carian, Lycian, Greek, and Latin. Scientific analysis of these sources provides significant insights into the political history, socio-economic structure, and daily life of the Bactrian satrapy's population. Particular attention in this study is devoted to the evidence from Elamite written sources, which illuminate specific aspects of the satrapy's historical development.

Key words: Achaemenid Iran, Turan, Bactrian Satrapy, Elamite Written Sources, Persepolis Fortification Archive, Persepolis Treasury Archive.

ИСТОРИЯ БАКТРИИ В ЭЛАМСКИХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ (VI–IV ВЕКА ДО Н. Э.)

Аннотация

Бактрия являлась историко-культурной областью Средней Азии, располагавшейся в среднем течении Амударьи между хребтами Гиссар и Гиндукуш (юг Узбекистана, юг Таджикистана, север Афганистана и юго-восток Туркменистана). В VI–IV веках до н.э. эта область входила в состав империи Ахеменидов, и в этот период здесь получили дальнейшее развитие управленческие традиции местной государственности. История Бактрийской сатрапии, одной из крупнейших сатрапий Ахеменидской державы, частично отражена в ахеменидских надписях, а также в эламских, вавилонских, арамейских, финикийских, египетских, лидийских, карийских, ликийских, греческих и латинских письменных источниках. Их научный анализ позволяет получить ценные сведения о политической и социально-экономической истории Бактрийской сатрапии, а также об образе жизни её населения. В данной статье рассматриваются и научно анализируются сведения об этой сатрапии, содержащиеся в эламских письменных источниках.

Ключевые слова: Ахеменидская эпоха, Туран, Бактрийская сатрапия, эламские письменные источники, Административный архив Персеполя (Архив укреплений и Архив казны).

ELAM YOZMA MANBALARIDA BOXTAR TARIXI (MILODDAN OLDINGI VI–IV ASRLAR)

Annotatsiya

Boxtar - Turonning Amudaryo o'rta oqimida Hisor tizmasi va Hindikush oraliq'ida joylashgan (hozirgi Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston va Janubi-sharqiy Turkmaniston) tarixiy-madaniy o'lka hisoblanadi. Ushbu tarixiy-madaniy o'lka mil. avv. VI-IV yuzyilliklarda Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirgan bo'lib, ushbu davrda bu hududda mahalliy davlatchilik boshqaruv an'analari yanada rivojlantirilgan. Ahamoniylar imperiyasining asosiy satraplik hududlaridan biri bo'lgan Bixtar satrapligi tarixi Ahamoniylar bitiklari, Elam, Bobil, Oromiy, Finikiya, Misr, Lidiya, Kariya, Likiya, Yunon va lotin kabi bir qancha yozma manbalarda qisman yoritib o'tilgan. Ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish Bixtar satrapligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, aholining turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar olishga yordam beradi. Ushbu maqolada Bixtar satrapligining Elam yozma manbalarida yoritilishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Eron Ahamoniylar davri, Turon, Bixtar satrapligi, Elam yozma manbalari, Persepol istehkom arxivi, Persepol xazina arxivi.

Kirish. Jahon mamlakatlari tarixini o'tganishda global va mintaqalar kesimida o'rganilishining keng ko'lamda olib borilishi, har bir hudud tarixi dunyo tarixining tarkibiy qismi sifatida olinishi dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining o'rnatilishi, ushbu hududlarda qadimda mavjud bo'lgan davlat va mahalliy boshqaruv birliklari, ma'muriy subyektlarini tarixini moddiy va yozma manbalar asosida o'rganilib, tarixini yoritish muhim ahamiyatga ega.

Boxtar satrapligi tarixining dolzarb muammolari bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bixtar satrapligi tarixi qadimgi fors bitiklari, Elam, Bobil, Oromiy, Finikiya, Misr, Lidiya, Kariya, Likiya, Yunon va lotin tilidagi

matnlar va antik davr mualliflarining asarlaridagi keltirilgan ma'lumotlar asosida qisqacha yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ahamoniylar davriga oid ma'lumotlar turli-tuman yozma manbalar va hujjatlarda keltirilgan. Bunga shoh bitiklari, tarixiy yilnomalar, qarorlar, shoh buyruqlari, satraplar farmonlari, aholining viloyat hokimlariga shikoyat xatlari, fors amaldorlarining rasmiy yozishmalari, aholi orasidagi yozishmalar, soliq yig'ish, mulkni boshqarish, qullarga egalik qilish bo'yicha yo'riqnomalar, soliqlar to'lovi bo'yicha xabarnoma (kvitansiya) lar, harbiy majburiyatni o'taganlik hujjatlari, sud jarayoni bayonnomalari, nikoh shartnomalari, ijara shartnomalari, qarz tilxatlari, diniy va ilmiy traktatlar, adabiy asarlar va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin [2].

Ularda Ahamoniylar saltanatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, aholining turmush tarzi haqida ma'lumot olish mumkin bo'lib, bevosita Turonning mil old. 6-4-yuzyilliklar tarixi bo'yicha yozma manbalar nihoyatda kam. Tadqiqotchi ko'p sonli manbalar orasidan Turon tarixiga oid ma'lumotlarni aniqlashi kerak. Shundan kelib chiqib, Turonning ahamoniylarga qaramlik davriga oid yozma manbalarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Bunda bizga Ahamoniylar saltanati tarixi manbalarini guruhlashtirish bo'yicha qilingan ishlar[2] tajribasi yordam beradi. Masalan, 2021 yilda chop etilgan "Ahamoniylar saltanati" tadqiqotida[9] manbalar 1) Ahamoniylar bitiklari; 2) Elam tilidagi; 3) Bobil tilidagi; 4) Oromiy tilidagi; 5) Finikiya; 6) Misr; 7) Lidiya, Kariya va Likiya; 8) Yunon va lotin tilidagi kabi manbalarga bo'lingan. Shuningdek, italiyalik tadqiqotchi M.Ferrario ahamoniylar davri O'rta Osiyo tarixi manbalarini tasniflashtirgan bo'lib, Bixtar satrapligi yozma va arxeologiya manbalarining yutuq va kamchiliklarini o'rgangan. Shuningdek, etnografik manbalarining o'rni ham ko'rsatilgan[13]. I.V.Pyankov tomonidan Turonning qadimgi davr tarixiga oid yozma manbalar tadqiq etilgan[6].

Shundan kelib chiqib, biz Turonning ahamoniylarga qaramlik davriga oid yozma manbalarini quyidagilarga bo'lishimiz mumkin: 1) Avesta; 2) Qadimgi fors tilidagi manbalar (shoh bitiklari); 3) Elam tilidagi manbalar (Persepol arxivlari); 4) Akkad tilidagi manbalar; 5) Oromiy tilidagi manbalar; 6) Injil manbalari; 7) Yunon-rim manbalari va h.k.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi Kurush davridan (mil. avv. 549 yilda Elam forslar tomonidan bosib olingan va Ahamoniylar saltanati satrapligiga aylantirilgan) boshlab ma'muriy boshqaruv yuritilishida elam tilidan foydalanilgan. Ahamoniylar shohlari elam tiliga alohida e'tibor berib, uch tilda bitilgan "shoh bitiklari" da undan foydalanilgan. Bundan tashqari fors ma'muriyati Janubi-g'arbiy Eronda ish yuritishda elam tili va yozuvidan foydalanib, shoh saroyi xo'jalik va ma'muriy hujjatlarini tayyorlashda ishlatilgan[3]. Bunga ko'p sonli sopol taxtachalar topilmasi misol bo'ladi. Ma'muriy hujjatlarining ko'pchiligi Persepol'dagi ikki arxivda aniqlangan. Bular:

Persepol istehkom arxivi (mil. avv. 509 yil aprel - 492 yil aprelga oid (Doro I hukmronligining 13-28 yillari)[1]). Arxiv Chikago sharq instituti (E.Gersfeld) tomonidan 1933-yilda Persepol'da aniqlangan bo'lib, dastlab R.T.Xalok tomonidan e'lon qilingan[14]. Persepol istehkom arxivi 16 000 sopol taxtachadan iborat bo'lib (15000 tasi elam tilida, 850 tasi oromiy tilida, 5000 tasi yozuvsiz bo'lib, muhrlangan taxtachadan iborat. Yunon tilidagi taxtachalar ham uchraydi.[10]), Persepol atrofiga, mintaqada oziq-ovqat va ichimliklarni saqlash, tarqatishga oid hujjatlar to'plamidan iborat[19]. Elam tilidagi Persepol istehkom arxivi sopol taxtachalari ba'zi manbalarda 30000 ta hujjatlardan iboratligi keltirilgan[26]. Yangi tadqiqotlarda esa Persepol istehkom arxivi hujjatlari soni 20 000 tani tashkil etishi aytib o'tiladi[20]. To'plamning asosiy qismi elam tilidagi, shuningdek, yozuvsiz muhrlangan lavhalardan iborat. Istehkom arxivining 2087 ta hujjati 1969-yilda, 33 ta hujjati 1978-yilda e'lon qilingan[14]. Shuningdek, 2587 hujjat R.Xalok tomonidan o'qilgan, ammo chop etilmagan[26]. 2008-yilda A.Arfe tomonidan Tehrondagi Eron milliy muzeyida saqlangan 165 ta lavhani nashr etilgan. R.Xalok tomonidan o'qilmagan minglab lavhalar hozirda M.Stolperning Persepol istehkom arxivi loyihasi doirasida o'rganilmoqda[30]. Persepol istehkom arxivi Ahamoniylar tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi[11; 19].

2006-yilda Parijda va 2013-yilda Bazelda Persepol istehkom arxiviga bag'ishlangan kollokvium va konferensiyalar tashkil etildi, ularning to'plamlari chop etildi[11].

Persepol istehkom hujjatlarining R.Xalok nashridan tanlangan 109 hujjatni tahlil qilgan U.Sin 55 % i (55 ta hujjat) bevosita sharqiy satraplikga yoki undan harakatlanuvchi insonlar, hayvon va resurslar haqidagi qaydlardan iborat [13]. Sharqiy satrapliklar orasida Araxosiya yetakchilik qiladi (9 hujjatda tilga olingan), ammo Bixtarning muhimligi haqida Hind vodiysining tilga olinishi asos bo'lib, tanlangan hujjatlarining 31 % ida (Hidu 23 ta hujjatda tilga olingan) uchraydi [27]. Sababi Panjobga sharqiy yo'l Bixtar orqali o'tgan, bunga Aleksandrning Hind vodiysidagi yurishi yo'li ham misol bo'lishi mumkin[13; 22]. Ushbu statistik tahlil hujjatlarining manba sifatidagi o'rni yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, 2002-yildan qayta tiklangan hujjatlarining o'rganish ishlari bixtarliklarning saltanatdagi o'rni muhimligini ko'rsatadi [13]. Ammo aytib o'tish lozimki, hujjatlar xronologiyasi faqat Doro I hukmronligi davriga oid bo'lib, 200 yil uchun qo'llash metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi[5].

Persepol xazina arxivi (mil. avv. 492-457-yillarga oid) [8]. Persepol xazina arxivi E.Shmidt tomonidan 1936-1938-yillardagi qazishma davomida aniqlangan. Umumiy 753 ta taxtacha aniqlangan bo'lib, 140 tasi dastlab Dj.Kameron tomonidan e'lon qilingan[12]. Hujjatlar Doro I hukmronligining 30-yilidan – Artakserks I hukmronligining 7-yiligacha bo'lgan davrga oid. Hujjatlarda 199 ta muhr aksi saqlanib qolgan. Hujjatlarda asosan Persepol'da shoh xo'jaligi ishchilariga ajratilgan kumush va tabiiy mahsulotlar qaydi keltirilgan [4].

Hujjatlarda amaldorlar va ishchilarga mahsulotlar taqsimlashga oid ma'lumotlar qayd etilgan bo'lib, elam tilining ish yuritishda keng foydalanilganligini ko'rsatadi[8].

Shuningdek, elam tilidagi hujjat Kandahorda ham aniqlangan[23]. 1977-yilda Eski Qandahorda olib borilgan qazishmalar paytida topilgan elam matni yozilgan mixxat yozuvli loydan yasalgan ikkita parcha bo'lagi yaqinda to'liq nashr etildi. Ularning mazmuni cheklangan bo'lsa-da, mazmuni va shakli jihatidan Persepol istehkom arxividagi materiallarga juda o'xshab, Qandahorda Ahamoniylar ma'muriy markazi mavjudligini ko'rsatadi[17]. U.Henkelman tadqiqotlarida Araxosiya'dan aniqlangan ushbu hujjatlar o'rni ko'rsatib beriladi[18]. Behiston bitiklarining birinchi matni joylashuviga ko'ra, elam tilida yozilgan bo'lib[24], 650 qatordan iborat. Behiston bitiklarida Baqtriya Baxtri-termini elam variantida Baxci shaklida tilga olinadi[7].

Persepol'dagi ikki arxivdan topilgan hujjatlar Baqtriya satrapligi tarixi bo'yicha asosiy manbalardan hisoblanadi. Shuningdek, O'rta Osiyoda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar aniqlangan satraplik davri landshaft tuzilishi va foydalanish darajalarini Persepol hujjatlari bilan qiyoslab o'rganish tajribasi olib borilgan [22].

Persepol istehkom arxiviga o'xshash elam taxtachalari topilgan Araxosiya topilmalari imperiya devonxonasi tizimi ishi muhim yangi istiqbolni taklif qiladi. U.Henkelman fikricha, Araxosiya topilmalari nafaqat o'z infratuzilmasi va ierarxiyasi bilan jihozlangan boshqa ma'muriy hududning mavjudligini aniqlaydi, balki boshqa mintaqalarda Persepol istehkom arxivi tipidagi institutsional iqtisodiyotni rivojlantirishning ongli amaliyotini borli ochib ko'rsatadi. Bu asosan ahamoniylarga qadar bo'lgan, balki Kir II ga qadar ma'muriy muassasalar hujjatlashtirilmagan sharqiy satrapliklarga talluqlidir[15].

Elam sopol taxtachalariga ko'ra, misrliklar, kappadokiyaliklar, likiyaliklar, "skudrianlar", sug'diylar va baqtriyaliklar toshtaroshlar yoki tasvirchi-bezakchilar deya tavsiflangan. Balki ular hozirgi kunda Borazjanda aniqlangan

uchta saroy majmualari (Charxob, Bardake-Siyah, Sang-e siyah) dan birini qurishga jalb etilgan. Ushbu hudud Ahamoniylarning markaziy viloyatlaridan biri bo'lib, qurilishda keng foydalangan qora toshlarga boy bo'lgan. Pavilyonlar deb ataluvchi ushbu majmualar qurilishi Kir II davridan boshlab, Doro davrida keng miqyosda olib borilgan. Masalan, Doro I hukmronligining 21-yilida 2500 ishchi Tamukkan/Taochega jo'natilgan[16].

Xulosa va takliflar. Elam tili Kir II davridan boshlab ma'muriy boshqaruv yuritilishida foydalanilgan. Ahamoniy shohlari elam tiliga alohida e'tibor berib, uch tilda bitilgan

“shoh bitiklari” da undan foydalanishgan. Bundan tashqari fors administratsiyasi Janubi-g'arbiy Eronda ish yuritishda elam tili va yozuvidan foydalanib, shoh saroyi xo'jalik va ma'muriy hujjatlarini ushbu tildan foydalanishgan. Bunga Persepol istehkom arxivi va Persepol xazina arxividan topilgan ko'p sonli sopol taxtachalar topilmasi misol bo'ladi. Ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish Boxtarda satrapligining siyosiy boshqaruvi, ichki va tashqi siyosati, savdo aloqalari tarixini, Ahamoniylar satrapligi tizimida tutgan o'rni masalalarini chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Maqolada tahlil etilgan to'plamlar va adabiyotlar
2. Грантовский Э.А. Иран и иранцы до Ахеменидов. Основные проблемы. Вопросы хронологии. М.: Изд-ая фирма “Вост.лит” РАН, 1998. – С. 28.
3. Дандамаев М.А. Ахеменидская империя: социально-административное устройство и культурные достижения. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2013. – С. 11-14.
4. Дандамаев М.А. Историография истории древнего Ирана // Историография истории древнего Востока: Иран, Средняя Азия, Индия, Китай. Под ред. Проф. В.И. Кузищина. –СПб.: Алетея, 2002. С. 15-49.
5. Дандамаев М.А. Персидская держава // Источниковедение истории Древнего Востока: Учебник для студ. истфаков вузов / Под ред. В.И.Кузищина. –М.: Высш. шк., 1984. С. 231-250.
6. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. М.: Наука, 1980.
7. Пьянков И.В. Источники и литература // История таджикского народа. Душанбе, 1998. Т. I. С. 7-44, 563-585.
8. Пьянков И.В. Источники и литература // История таджикского народа. Душанбе, 1998. Т. I. С. 7-44, 563-585.
9. Юсифов Ю.Б. Хозяйственные документы из Суз и хронология ранних Ахеменидов // ВДИ. – 1958. – № 3. – С. 18–32.
10. A Companion to the Achaemenid Persian Empire, edited by Bruno Jacobs and Robert Rollinger, Vol. 1. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2021.
11. Aperghis G.G., Zournatzi A. The Greek tablet (Fort. 1771) of the Persepolis Fortification archive // ARTA 2023.001. – 2023. P. 1-28. http://www.achemenet.com/pdf/arta/ARTA_2023.001_Aperghis_Zournatzi.pdf
12. Briant, P. Henkelman, W.F.M. Stolper, M.W. (eds.) L'Archive des Fortifications de Persépolis: état des questions et perspectives de recherches (Persika 12). Paris, 2008;
13. Cameron G.G. Persepolis Treasury Tablets. Chicago, 1948.
14. Ferrario M. et al. Uno, nessuno, centomila. L'Asia centrale achemenide e le sue fonti: alcune note di merito e di metodo. Parte 2 //The Ancient History Bulletin. – 2021. – V. 35. – №. 1-2. – P. 1-35.
15. Hallock, R.T. Persepolis Fortification Tablets (Oriental Institute Publications 95). Chicago: University of Chicago Press. 1969.
16. Henkelman W.F.M., Kaniuth K., Mohammad K. Resilience in Centralized State Systems. The Persepolis Fortification Archive and Achaemenid Institutional Longevity // Coming to Terms with the Future. Concepts of Resilience for the Study of Early Iranian Societies, edited by Reinhard Bernbeck, Gisela Eberhardt & Susan Pollock. Leiden: Sidestone Press, 2023. P. 232.
17. Henkelman Wouter F.M., Jacobs B., Stolper Matthew W. Einleitung: Imperiale Muster und Strukturen / Introduction: Tracing the Imperial Signature // Jacobs B., Henkelman W.F.M. & Stolper M.W. (eds.), Die Verwaltung im Achamenidenreich. Imperiale Muster und Strukturen / Administration in the Achaemenid Empire. Tracing the Imperial Signature (Classica et Orientalia 17). Wiesbaden: Harrassowitz, 2017. P. XXIII.
18. Henkelman, W. F. M., ‘Bactrians in Persepolis – Persians in Bactria’, in: J. Lhuillier and N. Boroffka, eds., A Millennium of History: The Iron Age in Southern Central Asia (2nd and 1st Millennia BC). Proceedings of the Conference Held in Berlin (June 23–25, 2015). Dedicated to the Memory of Viktor Ivanovich Sarianidi (Berlin: Dietrich Reimer Verlag, 2018) 223–256;
19. Henkelman, W.F.M. Imperial signature and Imperial paradigm: Achaemenid administrative structure and system across and beyond the Iranian plateau. In B. Jacobs, W.F.M. Henkelman, and M.W. Stolper (eds.), Die Verwaltung im Achamenidenreich – Imperiale Muster und Strukturen – Administration in the Achaemenid Empire – Tracing the Imperial Signature (Classica et Orientalia 17). Wiesbaden: Harrassowitz, 2017. Pp. 45–256 ;
20. Henkelman, W.F.M. The Other Gods Who Are: Studies in Elamite-Iranian Acculturation Based on the Persepolis Fortification Texts (Achaemenid History 14). Leiden: Nederlands Instituut voor het Nabije Oosten. 2008.
21. Jones C.E., Stolper M.W. ‘How many Persepolis Fortification tablets are there?’, in L’archive des Fortifications de Persépolis. État des questions et perspectives de recherches, ed. P. Briant, W. Henkelman, and M. Stoper. Paris, 2008. P. 27–50.
22. Lhuillier J. “Central Asia during the achaemenid period in archaeological perspective”, in S. Gondet, E. Haerinck. L’Orient est son jardin, Hommage à Rémy Bouchard, 58, Acta Iranica, Leuven/Paris/Bristol: Peeters, 2018, pp. 257–271.
23. Rapin, C., Grenet, F. How Alexander entered India. With a note on Ortospana (the Ancient name of Ghazni?). Afghanistan 1 (2018), 2018. P. 141-181.
24. Samuels J.T. A Camel Driver In The Achaemenid Persian Empire: Social Network Analysis Of A Non-Elite Professional And The Persepolis Fortification Archive // Bulletin of the Institute of Classical Studies. – 2016. – V. 59. –Issue. 2. – P. 1-23.
25. Schmitt, R. The Bisitun Inscriptions of Darius the Great: Old Persian Text .CorpusInscriptionum Iranicarum I / R. Schmitt. London: SchoolofOrientalandAfricanStudies,1991. P. 18-19.
26. Stolper, M.W. Elamite Sources // Jacobs, Bruno & Robert Rollinger (eds.). A companion to the Achaemenid Persian empire. Vol. 2. Hoboken, NJ: Wiley-Blackwell. 2021. P. 87-100.
27. The Persian Empire from Cyrus II to Artaxerxes I. Second Edition. Translated and edited with notes by M.Brosius. Cambridge University Press, 2023. P. xix.
28. Wu, X. Central Asia in the context of the Achaemenid Persian Empire (6th to 4th centuries B.C.). Ph.D. Dissertation, University of Pennsylvania. 2005. P. 100-138.
29. Wu, X., - Sverčkov, M. L., Boroffka, N.The 2010-2011 Seasons of Excavations at Kyzyltepa (VI - IV Centuries BCE), Southern Uzbekistan. Iranica Antiqua 52 (2017), pp. 283-362.
30. Zehbari, Z. “The Borazjan Monuments: A Synthesis of Past and Recent Works.” ARTA 2020.002. 2020. P. 2.
31. <https://oi.uchicago.edu/research/projects/persepolis-fortification-archive>